

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
"O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI M.T.O'ROZBOEV
NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI
INSTITUTI " DAVLAT MUASSASASI

"TASDIQLAYMAN"



Ilmiy tadqiqot instituti direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari
Umarxonov Sa'dillaxon Ismatullayevich
2025-11-28

LOYIHA

**"Zamonaviy turbulent modellar va SI asosida samarali gaz yoquvchi qurilmani boshqarish
algoritmilarini ishlab chiqish"**

Fan yo'nalishi:	Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fanlari
Loyiha turi:	Amaliy loyiha
Loyiha rahbari:	HAMDAMOV MUZAFFAR MUXIDDINOVICH
Loyiha bajarilayotgan tashkilot yuridik manzili:	Do'rmon yo'li ko'chasi 40 uy
Loyiha rahbarining ro'yxatda turgan manzili:	Posira MFY, TashGRES mavzesi, 30-uy, 36-xonadon
Loyihaning umumiy moliyaviy hajmi:	3 005 590 220 so'm
Loyihaning bajarilish muddati:	3 yil

Tanlov turi: 119 - tur

<p>Loyiha nomi: Zamonaviy turbulent modellar va SI asosida samarali gaz yoquvchi qurilmani boshqarish algoritmlarini ishlab chiqish</p>	<p>Loyiha raqami (shifri): AL-11925119636</p> <p>Fanning yo'nalishi: Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fanlari</p> <p>Qism fan yo'nalishi: Nanokimyo va nanotexnologiya</p>
<p>Loyiha rahbarining F.I.SH: HAMDAMOV MUZAFFAR MUXIDDINOVICH</p>	<p>Loyiha rahbarining telefon raqami: +998977384062</p> <p>Elektron pochta manzili: kamina9314@mail.ru</p>
<p>Ijrochi tashkilotning to'liq va qisqartirilgan nomi: "O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI M.T.O`ROZBOEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI " DAVLAT MUASSASASI</p>	
<p>Asosiy ishtirokchilarning F.I.SH:</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. MALIKOV ZAFAR MAMATKULOVICH 2. RAVSHANOV SHOHJAXON AKMALJON O'G'LI 3. NAZAROV FARRUX XOLIYOROVICH 4. XUJAYEV ISMATULLA KUSHAYEVICH 5. HAMDAMOV MUZAFFAR MUXIDDINOVICH 6. MADALIYEV MURODILJON ERKINJON O'G'LI 7. BOBORAXIMOV BAXTIYOR IXTIYOROVICH
<p>So'ralgan mablag' hajmi: 3 005 590 220 (mln. so'm.)</p>	<p>Loyihani amalga oshirish davri (yili): 36 oy</p>
<p>Arizani tayyorlashda uchinchi shaxslarning va/yoki xuquq egalaringning roziligi bilan materiallarni Vazirlikka taqdim etish va ularni Vazirlik tomonidan ekspertizasini o'tkazish va ommalashtirish bo'yicha mualliflik huquqi va boshka huquqlari buzilmaganligini kafolatlayman (ariza annotatsiyasi ko'rinishida).</p>	
<p>Loyiha rahbari: HAMDAMOV MUZAFFAR MUXIDDINOVICH 2025-11-28.</p>	
<p>Ijrochi tashkilot rahbari: UMARXONOV SA'DILLAXON ISMATULLAYEVICH 2025-11-28.</p>	

1.1. Loyiha to'g'risida ma'lumot:

Loyihaning nomi:

O'zbek tilida: Zamonaviy turbulent modellar va SI asosida samarali gaz yoquvchi qurilmani boshqarish algoritmlarini ishlab chiqish

1.2. Fan yo'nalishi: Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fanlari

1.3. Kalit (tayanch) so'zlar:

Zamonaviy turbulent modellar

SI (sun'iy intellekt)

Gaz yoquvchi qurilma

Boshqarish algoritmlari

LES, DNS

Turbulentlik modellash

Mashinani o'rganish

Reinforcement learning

Real vaqt monitoring

Dinamik boshqaruv

Avtomatik optimizatsiya

Sensorlar va datchiklar

IJT (intellektual jarohatlash tizimlari)

O'z-o'zini nazorat qiluvchi sistemalar

Ta'minot va xavfsizlik

yoquv uskunasi, turbulentlik nazariyasi, yonish modeli, issiqlik uzatish, dasturlar majmui, optimallashtirish, samaradorlik, sinov nushasi.

1.4. Loyiha annotatsiyasi (Abstract) (150 so'zdan oshmasligi lozim, jumladan, qisqacha loyihaning mazmun-mohiyati, amaliy ahamiyati, mavjud muammoning ilmiy yechimini ta'minlash va hal etishning dolzarbligi bayon etilishi lozim):

Hozirgi kunda butun jahonda tabiiy yoqilg'ini yoqishda tejamkor usullarni qo'llash katta ahamiyat kasb etadi. Chunki yoqilg'ini tejash nafaqat iqtisodiy samarani oshirish, balki atrof-muhitni, xususan havoning toza bo'lishini va ekologiyani muhofaza qilish uchun ham muhimdir. Ma'lumki, chala yonish natijasida hosil bo'lgan is gazlari sayyoramiz iqlimining isib ketishiga asosiy sababchi hisoblanadi. Shuning uchun zamonaviy texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt (SI), yoqilg'i sarfini

optimallashtirish, chala yonishni kamaytirish va chiqindi gazlarni nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi. SI algoritmlari yoqish jarayonini monitoring qilib, real vaqtda gaz va havo nisbatini muvofiqlashtirish, anormal holatlarni oldindan aniqlash va energetika samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Respublikamizda tabiiy yoqilg'ining salmoqli qismi elektr energiya ishlab chiqarish va turli inshootlarni, shu jumladan uylarni isitishga sarflanadi. Ammo IES (issiqlik energiya stantsiyasi)larda ishlatilayotgan uskunalar eskirgan va hozirgi zamon talabiga mos kelmaydi. Shuningdek, uylarni isitish uchun ishlatiladigan yoquv uskunalarni ham modernizatsiya qilish zarur. Ko'pincha shu paytgacha uylarni isitish uchun issiq suv markazlashgan tarzda yetkazib berilgan, bu usul esa katta hajmda issiqlik energiyasini yo'qotishga sabab bo'lgan. Shu bois hozirgi kunda ushbu uslubdan voz kechib, har bir uy uchun individual isitgich uskunalarni o'rnatish tendentsiyasi kuzatilmoqda.

Biroq ko'pchilik yangi uskunalarning samaradorligi past bo'lishi kuzatiladi, chunki mahalliy xususiy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan yoquv uskunalari issiqlik texnikasi fanining zamonaviy ilmiy yutuqlariga asoslanmagan. Samarali va ekonomik jihatdan tejamkor isitish uchun har bir isituvchi uskunani yoqilayotgan tabiiy yoqilg'ining turi va tarkibi, hamda honaning hajmiga qarab loyihalash zarur.

Bu maqsadga erishish uchun faqat yonish jarayonining zamonaviy matematik modellari va dasturlar majmuasi asosida uskunaning kerakli parametrlarini optimallashtirish mumkin. Shu bilan birga, ushbu jarayonni sun'iy intellekt (SI) algoritmlari bilan integratsiya qilish orqali, gaz va havo nisbati, ishlaydigan temperatura rejimlari va chiqindi gaz kontsentratsiyalari avtomatik ravishda monitoring qilinishi va optimallashtirilishi mumkin.

Bunda chet el tajribasidan foydalanish, turbulent oqimlar nazariyasi, yonish jarayonlarining CFD modellari, sonli hisoblash uslublari va eksperimental tadqiqotlarni SI asosida tahlil qilish talab etiladi. Bu usul orqali nafaqat energiya samaradorligi oshiriladi, balki ekologik xavfsizlik ham ta'minlanadi.

1.5. Kutilayotgan natijalar va ularning ahamiyati (*kutilgan natijalar va ularning ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga egaligi, rejalashtirilgan natijalarning jahon miqyosidagi tadqiqot natijalariga muvofiqligi, loyihada rejalashtirilgan natijalarning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari*):

Loyihani amalga oshirishda jahon miqyosidagi tadqiqot natijalaridan qolishmay, O'zR FA MISMIIdagi "Suyuqlik, gaz va gidrouzatish tizimlari mexanikasi" laboratoriyasida ishlab chiqilgan yangi turbulentlik nazariyasi, yonish jarayonlarining zamonaviy matematik modellari, hamda institut xodimlari tomonidan yaratilgan dasturiy majmualar keng qo'llaniladi va takomillashtiriladi.

Shuningdek, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini integratsiya qilish orqali:

gaz va havo nisbatini optimallashtirish,

yoquv uskunalarining ishlash samaradorligini prognoz qilish,

chala yonish va chiqindi gazlar holatini real vaqtda tahlil qilish,

optimal ishlash rejimini avtomatik ravishda belgilash imkoni paydo bo'ladi.

Pirovard natijada, samaradorlik bo'yicha import o'rnini bosuvchi va iqtisodiy jihatdan arzon, ijtimoiy va sanoat sohalarida qo'llaniladigan yoquv uskunasi ishlab chiqishga zamin yaratiladi. Bu esa

nafaqat energiya samaradorligini oshirish, balki ekologik xavfsizlikni ta'minlash va respublika iqtisodiyotini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

1.6. Ijrochi tashkilot va loyiha ishtirokchilarining loyihani bajarishdagi imkoniyati va ustunligi:

Yuqorida keltirilgan ilmiy-amaliy muammolar O'zR FA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti (MISMI)dagi "Suyuqlik, gaz va gidrouzatish tizimlari mexanikasi" laboratoriyasida ko'p yillardan beri har tomonlama o'rganilib, ishlab chiqarishga aniq takliflar berib kelinmoqda. Xususan, institutda turbulent yonishning turli jarayonlarini modellashtirish bo'yicha ilmiy maktab shakllangan va yoquv uskunalarini takomillashtirish bo'yicha qator takliflar kiritilgan.

Shuningdek, laboratoriyada ko'p fazali suyuqlik va gaz mexanikasi masalalari uchun kompyuter dasturlari yaratish ishlari olib borilmoqda, hamda ANSYS FLUENT, COMSOL va SOLIDWORKS kabi zamonaviy dasturiy majmualardan foydalanish amaliyoti keng qo'llanilmoqda. Ushbu loyihani amalga oshirishda, instituti xodimlaridan tashqari, "Kogon isitgich moslamalar" xususiy korxonasi hamda Suniy intellekt instituti xodimlari ham faol ishtirok etadi.

Xususiy korxonada yoquv uskunaning sinov nusxasi yaratilishi va uni takomillashtirish bo'yicha tajribalar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Shu bilan birga, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari integratsiya qilinadi, bu orqali yoquv uskunaning ishlash samaradorligini prognoz qilish, gaz va havo nisbatini optimallashtirish, hamda chala yonish va chiqindi gazlar holatini real vaqtda tahlil qilish imkoni paydo bo'ladi.

Olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar natijasida samarasi yuqori bo'lgan yangi yoquv uskunasi yaratilishi va uning parametrlari SI va CFD modellari asosida optimallashtirilishi ko'zda tutilgan. Bu esa nafaqat energiya tejamkorligini oshirish, balki ekologik xavfsizlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

1.7. Loyihani moliyalashtirish hajmining (so'ralgan mablag'ning) yillar bo'yicha taqsimoti (mln. so'mda ko'rsatiladi, bunda loyihani amalga oshirish muddati qo'lga kiritilishi rejalashtirilgan ilmiy natija(lar)dan kelib chiqqan holda asoslab berilishi lozim):

birinchi yilda (2026 y). - 1 005 615 ming so'm;

ikkinchi yilda (2027 y.) - 1 008 215 ming so'm.

uchinchi yilda (2028 y.) - 1 010 425 ming so'm.

1.8. Ilmiy jamoa tomonidan Web of Science yoki "Scopus" xalqaro ma'lumotlar bazasida indekslangan xorijiy nashrlarda chop etishi rejalashtirilgan ilmiy maqolalari soni: 10 ta. (Loyiha natijalarini chop etish uchun mo'ljallanayotgan ilmiy nashrlar haqida ma'lumot, shu jumladan, "Web of Science Core Collection", "Scopus" ma'lumotlar bazasida indekslangan nashrlar, shuningdek, maqola, sharh, monografiya yoki boshqa turdagi nashr ishlari ko'rsatiladi).

5

1.9. Loyihani amalga oshirish uchun ilmiy laboratoriya bazasi va mavjud ilmiy infratuzilma obyektlari to'g'risida ma'lumot (200 ta so'zdan oshmasligi lozim):

Loyihani amalga oshirishda Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti va Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti hamkorligida amalga oshiriladi. Asosan Mexanika institutida nazariy tadqiqot ishlari olib boriladi hamda chiziqsiz differentsial tenglamalaridan iborat matematik modellari va yechish metodlari ishlab chiqiladi. Asosan qo'yilgan masalalarni sonli yechishda va dasturiy vositani tuzishda zamonaviy tez ishlaydigan kompyuterlar zarur bo'ladi. Bunday kompyuterlar soatlab ishlaydigan dasturlarning ishlash vaqtini kamaytirishga imkoniyat beradi. Bunday kompyuterlar loyihani bajarish davomida sotib olish rejalashtirilgan. Gaz yoqish qurilmalarining konstruksiyasi va ishlash printsipi, issiqlik tarqalishi, yonish jarayonlarini tashkil qilishning dunyo ilmiy-texnik adabiyotdagi ma'lumotlar tahlil qilinadi va matematik modeli shakllantirish ishlari olib boriladi. Bu yonish jarayonlarini to'liq modellashtirishdan avval uni nazariy jihatdan juda chuqur tahlil qilib, olingan natijalar nufuzli jurnallarda chop etiladi va yonish nazariyasi algoritmi ishlab chiqiladi.

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutida esa SI tizimlari bilan bog'liq masalalarni hal qilishda yordamlashishadi. Olingan malumotlarni SI tizimiga integratsiya qilish va prognazlashtirish ishlarini amalga oshirishda mavjud qurilmalaridan foydalaniladi.

Loyiha ishtirokchilari gidrodinamikaning ilg'or sonli usullarini yaxshi biladi. Shuning uchun ushbu sonli usullar chekli ayirmalarga asoslangan bo'lib, ular oshkormas sxemalar, progonka va Patankar uslublaridan foydalana olishadi. Undan tashqari yonish jarayonlarini modellashtirishda turbulentslikning zamonaviy modellaridan foydalaniladi.

1.10. Loyiha doirasida ilgari bajarilgan/bajarilayotgan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar natijalari tahlili (loyiha doirasida ilgari grant asosida loyiha bajarilgan bo'lsa - uning natijalari (ilmiy asoslari), ushbu loyiha doirasida bajarilishi rejalashtirilgan ilmiy tadqiqot natijalaridan farqli jihatlari aniq bayon etilishi lozim, 500 ta so'zdan oshmasligi lozim):

Shu paytgacha loyiha rahbari tomonidan 1 ta innovatsion loyiha ijobiy yakunlangan. Bu innovatsion loyiha esa 2022-2024 yillari "Shamolning past tezligi uchun mo'ljallangan vertikal o'qli shamol turbinasini ishlab chiqish" loyixada ishtirok etishgan. Bu loyihada respublikamiz hududlari uchun mo'ljallangan shamol energetik qurilmasi ishlab chiqilgan va 3 ta hududda o'rnatilgan. Bu loyihalarning bajarilishida asosan, murakkab aerodinamikaning tenglamalarini yechilgan, zamonaviy turbulentslik modellaridan foydalanilgan va nazariy tadqiqotlar asosida samarali qurilmalar ishlab chiqilgan.

Yonish jarayonlarini modellashtirish va issiqlik tarqalishi masalalari bo'yicha shu paytgacha hech qanday loyihalar bajarilmagan. Ammo ushbu loyiha doirasida ham bajariladigan ishlar ushbu gidrodinamikaning va aerodinamikaning murakkab chiziqli bo'lmagan chiziqsiz differentsial tenglamalari sonli yechiladi, yechish algoritmi ishlab chiqiladi. Ushbu masalalarning fizik va matematik modeli ishlab chiqiladi. Ushbu algoritm va modellar yordamida dasturiy vosita tuziladi va unda hisoblash eksperimenti o'tkaziladi. O'tkazilgan sonli tadqiqotlar davomida qurilmalarning SI orqali optimal effektiv loyihalari yaratiladi.

Eslatma: Ushbu loyihalarda ijrochilarning ushbu loyihada ishtirok etuvchilari olindi.

Loyiha rahbari va ijrochi tashkilot rahbari quyidagilarni tasdiqlaydi:

1. Loyihada ko'zda tutilgan ilmiy natijalarning qo'lga kiritilishi ta'minlanadi va ajratiladigan

mablag'lar maqsadga muvofiq sarflanadi;

2. Loyiha mazmunan boshqa loyihalar bilan bir xil emas, bir vaqtning o'zida ilmiy jamg'armalar va boshqa tashkilotlarning tanlovlariga taqdim etilmagan;
3. Loyihada davlat siri bo'lgan yoki O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq muhofaza qilinadigan, cheklangan ma'lumot sifatida tasniflangan ma'lumotlar mavjud emas;
4. Loyihani amalga oshirish va grant mablag'laridan maqsadli foydalaniladi.

Loyiha rahbari imzosi: Fan
nomzodi(PhD) , Katta ilmiy xodim



HAMDAMOV MUZAFFAR
MUXIDDINOVICH

Ijrochi tashkilot rahbari imzosi: Fan
nomzodi(PhD) , Katta ilmiy xodim



UMARXONOV SA'DILLAXON
ISMATULLAYEVICH

Loyiha rahbari haqida ma'lumot

WoS Researcher ID (mavjud bo'lsa): E-5825-2017

Scopus Author (mavjud bo'lsa): 5722166505

Familiyasi, ismi, sharifi: HAMDAMOV MUZAFFAR MUXIDDINOVICH

WoS Researcher ID (mavjud bo'lsa): 57221665587

Scopus Author (mavjud bo'lsa): 57221665587

Loyiha rahbarining Hirsh indeksi: 7	
Scopus bazasida (agar mavjud bo'lsa)	7
Web of Science bazasida (agar mavjud bo'lsa)	2
Google scholar bazasida (agar mavjud bo'lsa)	10

2.2. Tug'ilgan sana (kun,oy, yil): 1991-10-06

2.3. Fuqaroligi: O'ZBEK

2.4. Ilmiy darajasi, berilgan yili: 2025-10-31

2.5. Ilmiy unvoni, berilgan yili: 2022-03-01

2.6. Ariza berilayotgan vaqtdagi asosiy ish joyi (tashkilotning to'liq nomi, lavozimi):

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika instituti

2.7. Loyiha rahbari tomonidan oxirgi uch yilda chop etilgan nashr ishlari soni: 45

2.8. Loyiha rahbarining so'nggi uch yil davomida erishgan asosiy ilmiy natijalari (muhim ilmiy natijalari, nashr ishlari, patentlar, guvohnomalar va hokazolar):

Loyiha rahbari 2022-2024 yillarda "Shamolning past tezligi uchun mo'ljallangan vertikal o'qli shamol turbinasini ishlab chiqish" nomli innovatsion loyiha rahbari sifatida faoliyat olib borgan. Ushbu davrda u shamol energiyasidan samarali foydalanishga qaratilgan texnologik yechimlarni ishlab chiqish, aerodinamik jarayonlarni tahlil qilish va kichik quvvatli VASH qurilmalarini konstruktorlik jihatdan takomillashtirish bilan shug'ullangan. Shuningdek, loyiha rahbari boshqa ikki amaliy loyihalarda ijrochi sifatida ishtirok etib, ilmiy-tadqiqot ishlarida muhim natijalarga erishgan hamda energiya tejamkor qurilmalarni yaratish jarayoniga salmoqli hissa qo'shgan. loyiha rahbari boshqa ikki amaliy loyihalarda ijrochi sifatida ishtirok etib, ilmiy-tadqiqot ishlarida muhim natijalarga erishgan hamda energiya tejamkor qurilmalarni yaratish jarayoniga salmoqli hissa qo'shgan. qurilmalarni yaratishga erishilgan

2.9. Ilmiy loyihalarni boshqarish va uni amalga oshirish bo'yicha tajribasi: (natijadorlikka erishish bo'yicha loyiha rahbarining yondashuvlari, so'nggi 3 yil mobaynida bajarilgan loyihalar (tashkilot) nomi, raqamlari va muddati, amalga oshirishda erishilgan muvaffaqiyatlar) - (kamida 1000 ta so'z).

Loyiha rahbari 2022-2024 yillarda "Shamolning past tezligi uchun moljallangan vertikal o'qli shamol turbinasini ishlab chiqish" nomli innovatsion loyihasi rahbari bo'lib faoliyat yuritgan hamda boshqa 2 ta amaliy loyihalarda ijrochi bo'lib ishlagan. Loyiha rahbari 2022-2024 yillar davomida "Shamolning

past tezligi uchun mo'ljallangan vertikal o'qli shamol turbinasini ishlab chiqish" nomli innovatsion loyiha rahbari sifatida samarali faoliyat yuritgan. Ushbu loyiha mamlakatimizning qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan foydalanish darajasini oshirish, past shamol tezligida ham elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgan yangi avlod qurilmasini yaratishga qaratilgan bo'lib, loyiha rahbari tomonidan texnik, ilmiy va tashkiliy jarayonlarning uzviy boshqaruvi ta'minlangan. Mazkur davrda u aerodinamika, gidrodinamika, konstruktorlik yechimlari va energetik samaradorlik bo'yicha chuqur ilmiy tahlillar olib borgan, shamol energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi bir qator texnik yangiliklar ishlab chiqqan. Loyiha doirasida vertikal o'qli shamol turbinasining past tezlikda ham barqaror aylanishini ta'minlash maqsadida bir nechta matematik, fizik va kompyuter modellar ishlab chiqildi. Bunda CFD (Computational Fluid Dynamics) simulyatsiyalari, Reynolds-averaged Navier-Stokes tenglamalariga asoslangan hisoblar hamda turli turbina profillari aerodinamikasi bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, k- ϵ va SST kabi turbulentslik modellarini solishtirish, past Reynolds sonlarida oqimning xatti-harakatini aniqlash, turbulentsiya jarayonini to'g'ri tavsiflash kabi ilmiy vazifalar bajarildi. Tadqiqotlar davomida shamol tunnelli ma'lumotlari bilan solishtirilgan natijalar orqali turbina samaradorligi yuqori aniqlikda baholandi. Loyiha rahbari shamol energiyasidan foydalanish bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganib, O'zbekiston iqlim sharoitiga mos, ayniqsa Farg'ona vodiysi, Qoraqalpog'iston, Jizzax, Buxoro va Navoiy hududlarida uchraydigan nisbatan past tezlikli shamollarni samarali elektr energiyasiga aylantirish imkonini beruvchi konstruktorlik yechimlarni taklif etdi. Bunday sharoitlar uchun eng maqbul turbina profillari tanlandi, pichoqlar geometriyasi optimallashtirildi, aylanish momentining o'zgaruvchanligi kamaytirildi hamda turbina ishga tushish tezligi minimallashtirildi. Natijada mahalliy sharoitga mos, kam texnik xizmat talab qiluvchi, xavfsiz ishlovchi va iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lgan VASH modeli ishlab chiqildi. Loyiha rahbari rahbarlik qilgan jamoa tomonidan shamol tezligining 2,5-3 m/s oralig'ida ham samarali aylanishga kirisha oladigan turbina prototipi yaratildi. Turbinaning konstruktiv elementlari, masalan, pichoqlar materiali, o'qlar mustahkamligi, podshipniklarning yuk ko'tarish qobiliyati, korpusning aerodinamik shakli, zavodda ishlab chiqarish texnologiyasi uchun moslashgan variantlar tahlil qilindi. Shu bilan birga, qurilmaning elektr qismi - generator tanlovi, aylanish chastotasini stabilizatsiya qilish tizimi, invertor va akkumulyatorlar bilan uyg'unlashtirish algoritmlari ishlab chiqildi. Turbina ishlash jarayonidagi tebranishlar, shovqin darajasi, mexanik barqarorlik ham puxta o'rganilib, ularning kamaytirilishi bo'yicha aniq konstruktiv tavsiyalar ishlab chiqildi. Ilmiy loyihalarni boshqarish va ularni amalga oshirish bo'yicha tajriba Ilmiy loyihalarni samarali boshqarish ilmiy-tadqiqot jarayonlarining muvoffaqiyatli kechishini, natijalarning amaliyotga joriy etilishini, loyiha maqsadlarining aniq muddatlarda bajarilishini ta'minlaydigan murakkab va mas'uliyatli faoliyat sanaladi. Ilmiy loyiha rahbari nafaqat ilmiy mutaxassis, balki tashkiliy, menejerlik va analitik ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Bunda loyiha jarayonlari, ilmiy g'oyalar, nazariy va amaliy izlanishlar, moliyaviy boshqaruv, jamoa bilan ishlash, texnik yechimlar ishlab chiqish, metodologik yondashuvlar va natijalarni baholash bosqichlari chuqur yoritiladi. Quyida ilmiy loyihalarni boshqarish va amalga oshirish bo'yicha to'plangan kompleks tajriba keng qamrovli tarzda bayon qilinadi. 1. Loyiha g'oyasini shakllantirish va ilmiy asoslarni tayyorlash Ilmiy loyihani boshlashning eng mas'uliyatli bosqichi - bu loyiha g'oyasini shakllantirish va uning ilmiy asosini yaratishdir. Loyiha rahbari ilmiy muammoning dolzarbligini aniqlaydi, mavjud ilmiy manbalarni tahlil qiladi, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar natijalarini o'rganadi, bozor ehtiyojlari yoki texnik masalalarning amaliy yechimlarini ko'zdan kechiradi. G'oya shakllangach, loyiha konsepsiyasi ishlab chiqiladi. Masalan, energiya sohasidagi loyihalarda aerodinamik, gidrodinamik va termo-fizik jarayonlar chuqur o'rganiladi. CFD modellashtirish, matematik analiz, tajriba-konstruktorlik ishlari va boshqa ilmiy metodlar asosida loyiha texnik jihatdan asoslanadi. Loyiha rahbari ushbu bosqichda ilmiy masala chegaralarini aniqlab beradi, metodologiyani belgilaydi va tadqiqot strategiyasini yaratadi. 2. Loyiha rejasini ishlab chiqish, vazifalarni taqsimlash va muddatlarni belgilash Ilmiy loyihalarda vaqtni to'g'ri rejalashtirish juda muhim. Loyiha rahbari umumiy maqsadni bosqichlarga ajratadi, tadqiqot uchun zarur texnik vositalarni belgilaydi, har bir tadqiqot bosqichi uchun aniq muddatlar belgilab beradi. Bu jarayon

Gantt diagrammalari, loyiha boshqaruvi tizimlari (MS Project, Trello, Jira va boshqalar) orqali amalga oshiriladi. Vazifalarni taqsimlash jamoa ichida rol va majburiyatlarni aniq belgilaydi: ilmiy-tadqiqot bo'limi - analitik va nazariy hisob-kitoblar, laboratoriya bo'limi - tajribalar va fizik o'lchovlar, konstruktiv bo'lim - texnik chizmalar va prototiplar, dasturchilar - modellashtirish va raqamli simulyatsiyalar, iqtisodchilar - loyiha samaradorligini hisoblash. Rahbar barcha bo'limlarning o'zaro hamkorligini ta'minlaydi, jarayonni nazorat qiladi va muammolarga tezkor yechim topadi.

3. Ilmiy tadqiqot metodlarini tanlash va qo'llash Ilmiy loyihalarda to'g'ri metodologiyani qo'llash natijaning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi. Rahbar loyihaning yo'nalishiga qarab turli ilmiy metodlardan foydalanadi: matematik modellashtirish, CFD tahlil, eksperimental tadqiqotlar, statistik tahlil, fizik jarayonlarni o'lchash, optimallashtirish algoritmlari, energiya samaradorligini aniqlash usullari, aerodinamik testlar, materiallar tahlili, kompyuter simulyatsiyalari. Masalan, shamol energiyasi bo'yicha ilmiy loyihalarda Navye-Stoks tenglamalarini yechish, turbulentslik modellarini qo'llash, Reynold soni ta'sirini aniqlash, pichoqlar geometriyasini optimallashtirish kabi murakkab jarayonlar mavjud. Rahbar ushbu jarayonlarning tasnifi, qo'llanilishi va solishtirma tahlilini to'g'ri tashkil qiladi.

4. Loyiha jamoasini boshqarish va motivatsiya tizimini yaratish Har qanday ilmiy loyiha muvaffaqiyati jamoaning malakasi va o'zaro hamkorligiga bevosita bog'liq. Rahbar jamoani shakllantiradi, ilmiy xodimlarning kasbiy ko'nikmalarini baholaydi, ularni zarur vazifalarga yo'naltiradi. Jamoa ichida: samarali muloqot, muntazam yig'ilishlar, hisobot almashish tizimi, vazifalarning aniqligi, intizom va tartib teng darajada yo'lga qo'yiladi. Motivatsiya uchun rag'batlantirish, maqtov, ijodiy erkinlik va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash muhim. Loyiha rahbari muammoli vaziyatlarda jamoa ichida nizolarni yumshatadi, ilmiy qarama-qarshiliklarni tahlil asosida hal qiladi.

5. Eksperimental va laboratoriya ishlarini tashkil etish Har bir ilmiy loyiha amaliy bosqichga ega. Rahbar tajriba jihozlarini tanlaydi, o'lchash aniqligini oshirish bo'yicha choralar belgilaydi, laboratoriya xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qiladi. Tajribalar ketma-ketligi quyidagi tartibda ishlab chiqiladi: Aniq maqsadlarni belgilash Tajriba metodikasini ishlab chiqish Jihozlarni sozlash O'lchash jarayonini nazorat qilish Xatoliklarni tahlil qilish Natijalarni qayta ishlash Bu bosqichda prototip yaratish, sinovdan o'tkazish, o'lchash aniqligini baholash, tahliliy va eksperimental natijalarni solishtirish muhim hisoblanadi. Ilmiy loyihalarni samarali boshqarish ilmiy-tadqiqot jarayonlarining muvoffaqiyatli kechishini, natijalarning amaliyotga joriy etilishini, loyiha maqsadlarining aniq muddatlarda bajarilishini ta'minlaydigan murakkab va mas'uliyatli faoliyat sanaladi. Ilmiy loyiha rahbari nafaqat ilmiy mutaxassis, balki tashkiliy, menejerlik va analitik ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Bunda loyiha jarayonlari, ilmiy g'oyalar, nazariy va amaliy izlanishlar, moliyaviy boshqaruv, jamoa bilan ishlash, texnik yechimlar ishlab chiqish, metodologik yondashuvlar va natijalarni baholash bosqichlari chuqur yoritiladi. Quyida ilmiy loyihalarni boshqarish va amalga oshirish bo'yicha to'plangan kompleks tajriba keng qamrovli tarzda bayon qilinadi. Ilmiy loyihalarni samarali boshqarish ilmiy-tadqiqot jarayonlarining muvoffaqiyatli kechishini, natijalarning amaliyotga joriy etilishini, loyiha maqsadlarining aniq muddatlarda bajarilishini ta'minlaydigan murakkab va mas'uliyatli faoliyat sanaladi. Ilmiy loyiha rahbari nafaqat ilmiy mutaxassis, balki tashkiliy, menejerlik va analitik ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Bunda loyiha jarayonlari, ilmiy g'oyalar, nazariy va amaliy izlanishlar, moliyaviy boshqaruv, jamoa bilan ishlash, texnik yechimlar ishlab chiqish, metodologik yondashuvlar va natijalarni baholash bosqichlari chuqur yoritiladi. Quyida ilmiy loyihalarni boshqarish va amalga oshirish bo'yicha to'plangan kompleks tajriba keng qamrovli tarzda bayon qilinadi.

2.11. Moliyalashtirish amalga oshiriladigan ijrochi tashkilot bilan kutilayotgan mehnat munosabati shakli:

tashkilot asosiy ish joyi bo'ladi;

bir vaqtning o'zida o'rindoshlik asosida mehnat shartnomasi tuziladi.

Shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari (seriyasi, nomeri, qachon va kim tomonidan berilgani)	AD6515913, 1991-10-06
---	-----------------------

Yashash manzili	Посира МФЙ, ТашГРЭС мавзеси, 30-уй, 36-хонадон
Bog'lanish uchun telefon, elektron manzil (e-mail):	+998977384062
Ushbu shaklga kiritilgan ma'lumotlarni qayta ishlashlariga roziligimni bildiraman. Ma'lumotlarni vazirlik tomonidan qayta ishlash, yigish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish, foydalanish, tarqatish, arizalarni ekspertiza uchun topshirish, loyihalar va dasturlarni ekspertizadan utkazish, tanlov buyicha taxlilij materiallar tayyorlash, moliyalashtirilgan dastur va loyihalar rahbarlari to'grisida ma'lumotlar Buyurtmachi tomonidan oshkor qilinishi mumkin.	

Tanlov shartlari bilan tanishdim va roziman. Loyihada ishtirok etishimni tasdiqlayman.

Loyiha rahbari:



HAMDAMOV MUZAFFAR MUXIDDINOVICH

Imzolangan sana: 2025-11-28 y.

2a-SHAKL

№	Loyihaning asosiy ijrochilari F.I.SH	Loyihadagi ishtiroki (lavozimi)	Tug'ilgan sana	Ilmiy daraja va unvoni	Ariza berayotgandagi asosiy ish joyi	Oxirgi 3 yilda loyiha mavzusi doirasida chop etgan ilmiy ishlari soni		Loyiha doirasida amalga oshiradigan ishlari (vazifalari)
						Jami	Web of Science yoki Scopus jurnallarida	
1.	RAVSHANOV SHOHJAXON AKMALJON O'G'LI	Ilmiy unvonga ega emas	1998-11-11	Yo'q , Yo'q	Ish joyi mavjud emas	15	2	1. Turbulentligini hisobga olgan RANS/LES modellarida gaz-havo aralashmasining oqimi, diffuziyasi, harorat maydoni va kimyoviy kinetikasini matematik ifodalash
2.	MALIKOV ZAFAR MAMATKULOVICH	Fan doktori, professor ilmiy unvoniga ega	1962-04-21	Fan doktori(DSc) , Professor	UCHREJDENIE "O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI M.T.	50	15	3. Tez yonuvchi va chala yonuvchi zonalarni aniqlovchi issiqlik almashinuvi va kimyoviy reaksiya mexanizmlarini integratsiya qilish
3.	HAMDAMOV MUZAFFAR MUXIDDINOVICH	Fan doktori yoki professor	1991-10-06	Fan doktori(DSc) , Katta ilmiy xodim	Ish joyi mavjud emas	40	8	Olingan CFD modelini laboratoriya stendi orqali validatsiya qilish uchun eksperimental reja ishlab chiqish
4.	XUJAYEV ISMATULLA KUSHAYEVICH	Fan doktori, professor ilmiy unvoniga ega	1951-06-01	Fan doktori(DSc) , Professor	Ish joyi mavjud emas	75	10	yoqish kamerasi ichidagi jarayonlar to'liq raqamlashtirilgan, yuqori aniqlikdagi prognoz beruvchi ilmiy model yaratiladi
5.	NAZAROV FARRUX XOLIYOROVICH	Fan doktori, professor ilmiy unvoniga ega	1988-04-04	Fan doktori(DSc) , Katta ilmiy xodim	Ish joyi mavjud emas	40	8	turbulent oqim (RANS/LES), issiqlik almashinuvi va kimyoviy kinetikani qamrab olgan kompleks model yaratiladi
6.	BOBORAXIMOV BAXTIYOR IXTIYOROVICH	Fan nomzodi, ilmiy unvoniga ega	1994-11-18	Fan nomzodi(PhD) , Yo'q	"RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN' IY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI	30	7	SI tizimi bilan dasturni integratsiya qilish va optimal parametrlarni aniqlash algoritmlarini ishlab chiqish

7.	MADALIYEV MURODILJON ERKINJON O'G'LI	Fan doktori, dotsent yoki katta ilmiy xodim unvoniga ega	1991-12-14	Fan doktori(DSc) , Dotsent	Ish joyi mavjud emas	79	35	SI asosida algoritmnlarni turbulent modellar orasidagi integratsiyani tahlili
----	--	---	------------	----------------------------------	-------------------------	----	----	---

Loyiha rahbari imzosi:



HAMDAMOV MUZAFFAR MUXIDDINOVICH

Ijrochi tashkilot rahbari
imzosi:



UMARXONOV SA'DILLAXON ISMATULLAYEVICH

Ijrochi tashkilot haqida ma'lumot

(loyiha bajariladigan va mablag'larni o'zlashtiradigan tashkilot)

- 3.1. To'liq nomi: "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI M.T.O'ROZBOEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI " DAVLAT MUASSASASI
- 3.3. Ingliz tilidagi nomi: Institute of Mechanics and Seismic stability of structures named after M.T.Urazbaev
- 3.4. Tashkiliy-huquqiy shakli: ss
- 3.5. Mulk shakli: byudjet
- 3.6. Idoraviy mansubligi yuqori turuvchi tashkiloti (vazirlik/idora): O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI Fanlar akademiyasi
- 3.7. STIR:
- 3.7 KED: 000
- 3.8. Manzil: Do'rmon yo'li ko'chasi 40 uy
- 3.9. Yuridik manzil: Durmon yuli 40
- 3.10. Tashkilot rahbarining lavozimi, F.I.SH: Илмий тадқиқот институти директорининг илмий ишлар бўйича ўринбосари
- 3.11. Murojaat uchun telefon raqami: 71 262-71-52
- 3.12. Elektron pochta manzili (e-mail): instmech@academy.uz

Tashkilot rahbari quyidagilarni tasdiqlaydi:

- tanlov shartlari bilan tanishib chiqadi, loyiha tanlovda g'olib bo'lsa, tashkilot orqali uni moliyalashtirishga rozilik beradi;
 - tanlov hujjatlarida belgilangan shartlarga roziligini bildiradi;
 - loyiha rahbari to'g'risida arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarni tasdiqlaydi;
- Loyiha tanlovda g'olib bo'lgan taqdirda ijrochi tashkilot quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:
- ilmiy jamoa a'zolari bilan fuqarolik-huquqiy yoki mehnat (muddatli mehnat) shartnomalarini tuzish (loyiha rahbari bilan mehnat shartnomasi tadqiqotni masofadan turib bajarish bo'yicha bo'lishi mumkin emas);
 - loyiha rahbari roziligi bilan ilmiy jamoa a'zolariga loyihani amalga oshirish uchun haq to'lash;
 - har yili belgilangan muddatda loyiha mablag'larining maqsadli ishlatilishi to'g'risida hisobot taqdim etish.

Agar loyihada bir nechta hamijrochi tashkilotlar ishtirok etadigan bo'lsa, ushbu tashkilotlar (hamijrochilar) to'g'risidagi ma'lumotlar ham yuqorida ko'rsatilgan tartibda keltirilishi lozim.

Tashkilot rahbari imzosi



UMARXONOV SA'DILLAXON ISMATULLAYEVICH

Loyihani asoslash (mazmuni)

4.1. Loyihada hal etilishi ko'zda tutilgan ilmiy muammo (150 ta so'zdan oshmasligi lozim):

Hozirgi kunda tabiiy yoqilg'i yoqish jarayonida energiya samaradorligini oshirish va chiqindi gazlarni kamaytirish bo'yicha yetarli darajada ilmiy asoslangan, optimallashtirilgan mahalliy isitish uskunalari mavjud emas. Mamlakatda ishlatilayotgan ko'plab isitish moslamalari eskirgan texnologiyalarga asoslangan bo'lib, yoqilg'ining chala yonishiga, yuqori issiqlik yo'qotishlariga va ekologik zararlarning ortishiga sabab bo'ladi. Asosiy ilmiy muammo — yoqilish jarayonining turbulent oqimlari, gaz-havo nisbatlari va issiqlik almashinuvi jarayonlarini aniq modellashtiruvchi zamonaviy CFD va SI asosidagi optimallashtirish tizimining yo'qligidir. Shu bois yoqilg'i tarkibi, isitiladigan xonaning hajmi va ish rejimiga mos ravishda ishlaydigan, sun'iy intellekt algoritmi asosida ishlab chiqiluvchi energiya tejamkor isitish uskunasi konsepsiyasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa sifatida qaraladi.

4.2. Loyihaning maqsadi va vazifalari (1500 ta so'zdan oshmasligi lozim, bayon etilgan ilmiy muammoni yechish uchun loyiha jamosi oldiga qo'yilgan maqsad ochib berilishi, bunda yangi ilmiy ishlanma (mahsulot/texnologiya) olishni ta'minlab beruvchi texnik, texnologik, texnik-iqtisodiy samara(lar), qo'lga kiritilishi rejalashtirilgan muhim ilmiy natijalar, yangi mahsulot bozorlari, eksportga yo'naltirish va import o'rnini qoplash, intellektual mulk ob'yektlarini yaratish asosida tovarlar (mahsulot, xizmatlar) bozorida munosib o'rin egallashga oid vazifalar izchil ketma-ketlikda asoslab berilishi zarur):

Mazkur ilmiy-texnik loyiha tabiiy yoqilg'ining turbulent yonish jarayonini chuqur matematik modellashtirish, sun'iy intellekt asosida real vaqt boshqaruv algoritmlarini ishlab chiqish hamda energiya samaradorligi yuqori, ekologik xavfsiz yangi avlod yoqish tizimi uchun **konstruktiv-texnologik loyiha** yaratishga qaratilgan. Loyihaning bosh maqsadi - mahalliy sharoitga mos, gaz-havo nisbatini avtomatik optimallashtiruvchi, NOx va CO emissiyalarini keskin kamaytiruvchi va yoqilg'i sarfini minimal darajaga tushiruvchi **integrallashgan SI-CFD boshqaruv platformasini** ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur loyiha yakunida tayyorlanadigan texnologik loyiha O'zbekistonning energiya samaradorlik bo'yicha texnik talablari, ekologik standartlari va mahalliy yoqilg'i tarkibiga mos, import o'rnini qoplovchi hamda xalqaro bozorlar uchun eksport salohiyatiga ega bo'lgan yangi avlod yoqish tizimlarini ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratadi.

1. Yonish jarayonining chuqur CFD matematik modelini yaratish

Ushbu vazifa doirasida quyidagi texnik topshiriqlar bajariladi:

1. Turbulentligini hisobga olgan RANS/LES modellarida gaz-havo aralashmasining oqimi, diffuziyasi, harorat maydoni va kimyoviy kinetikasini matematik ifodalash.
2. Metan asosiy komponent bo'lgan mahalliy tabiiy gaz tarkibi, kiritilgan namlik, bosim va tashqi haroratning o'zgaruvchanligini hisobga oluvchi lokal modellar yaratish.
3. Tez yonuvchi va chala yonuvchi zonalarni aniqlovchi issiqlik almashinuvi va kimyoviy reaksiya mexanizmlarini integratsiya qilish.
4. Olingan CFD modelini laboratoriya stendi orqali validatsiya qilish uchun eksperimental reja ishlab chiqish.

Mazkur vazifa yakunida yoqish kamerasi ichidagi jarayonlar to'liq raqamlashtirilgan, yuqori aniqlikdagi prognoz beruvchi ilmiy model yaratiladi. Bu model keyinchalik konstruksiyani optimallashtirish va AI nazorat tizimining o'qitilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Vazifa 2. Sun'iy intellekt asosida gaz-havo nisbatini boshqarish algoritmlarini ishlab chiqish

Yuqori samaradorlikni ta'minlashda real vaqt boshqaruv algoritmi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu maqsadda:

1. **Neyron tarmoqlar** yordamida yonish samaradorligini (η), CO/NO_x chiqindilarini va issiqlik quvvatini prognoz qiluvchi "predictive model" ishlab chiqiladi.
2. **Reinforcement learning** asosida optimal yonish rejimini avtomatik tanlaydigan boshqaruv modulini yaratish.
3. Real vaqt o'lchovlariga ega sensorlardan keladigan ma'lumotlar asosida gaz-havo nisbatini dinamik sozlovchi AI boshqaruv algoritmi ishlab chiqiladi.
4. AI algoritmlarini CFD modellaridan olingan katta hajmli ma'lumotlar bilan o'qitish orqali yuqori aniqlik ta'minlanadi.

Mazkur vazifa natijasida tizimning energiya samaradorligi +10...15 %, CO emissiyasi -25...35 %, NO_x emissiyasi -20...30 % kamayishiga erishuvchi boshqaruv yondashuvi yaratiladi.

Vazifa 3. Integrallashgan boshqaruv tizimining dasturiy platformasini ishlab chiqish

Yaratiladigan mahsulot nafaqat ilmiy model, balki amalda ishlaydigan **dasturiy kompleks** bo'lishi lozim. Shu sababli:

1. CFD modeli, AI boshqaruv algoritmlari va real vaqt monitoring tizimini birlashtiruvchi yagona platforma ishlab chiqiladi.
2. Sensor interfeyslari, ma'lumot yig'ish va qayta ishlash modullari yaratiladi.
3. Operator uchun qulay vizual boshqaruv paneli (HMI/SCADA) ishlab chiqiladi.
4. Integratsiyalangan tizim yoqish jarayonini nazorat qilish, diagnostika qilish va avariya holatlaridan himoya qilish funksiyalariga ega bo'ladi.

Ushbu bosqich yakunida sanoatga tatbiq etish uchun to'liq ishlaydigan raqamli boshqaruv platformasining loyihasi tayyor bo'ladi.

Vazifa 4. Yangi avlod yoqish tizimining konstruktiv yechimlarini ishlab chiqish

CFD natijalariga asoslangan holda:

1. Yoqish kamerasi geometriyasi, havo kanallari, diffuzorlar va burner elementlari optimallashtiriladi.
2. Issiqlik almashinuvi yo'qotishlarini kamaytiruvchi konstruktiv yechimlar ishlab chiqiladi.
3. Energiya tejamkorlik talablari asosida yoqish tizimining texnik loyihasi tayyorlanadi.

Bu vazifa import o'rnini bosuvchi konstruktiv hujjatlar paketi shakllanishi bilan yakunlanadi.

Vazifa 5. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va modelni validatsiya qilish

1. Modulli laboratoriya stendi loyihasi va texnik hujjatlari tayyorlanadi.
2. CFD modelidan olingan natijalar real tajriba bilan solishtirilib optimallashtiriladi.
3. AI algoritmlarining haqiqiy sharoitdagi barqarorligi tekshiriladi.

Natijada yaratilgan modelning ishonchliligi ilmiy asoslangan tarzda tasdiqlanadi.

3. Loyiha natijasining texnik, texnologik va iqtisodiy samarasi

Texnik samara

- Energiya tejamkorlikning oshishi (10-15 % atrofida).
- CO va NO_x chiqindilarining kamayishi.
- Yoqilg'i sarfi va issiqlik yo'qotishlarining optimallashtirishi.
- Eksploatatsiya xavfsizligining ortishi.

Texnologik samara

- Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun yangi avlod yoqish tizimi loyihasi.
- SI-CFD integratsiyasiga asoslangan intellektual boshqaruv platformasi.
- Import mahsulotlarining murakkab konstruksiyalariga mahalliy alternativ.

Iqtisodiy samara

- Energiya iste'molini kamaytirish orqali yiliga 8-12 % tejalgan xarajatlar.
- Mahalliy bozor talabi (yiliga 50-80 ming dona isitish uskunasi) uchun eksportbop mahsulot yaratish.
- Import o'rnini qoplashi hisobiga sanoat xarajatlarini pasaytirish.
- Kichik va o'rta biznes uchun yangi ishlab chiqarish liniyalarini yo'lga qo'yish imkoniyati

4.3. Tadqiqot muammosining o'rganilganlik darajasi, jahon ilm-fanidagi ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha erishilgan yutuqlar va raqobatchilar tahlili (500 ta so'zdan oshmasligi lozim):

Tabiiy yoqilg'ining turbulent yonish jarayonlarini modellashtirish, ularni energetik samaradorlik va ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan optimallashtirish so'nggi 20 yil davomida jahon ilm-fanning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, **CFD (Computational Fluid Dynamics)** asosida turbulent oqimlar, gaz-havo aralashmalari, kimyoviy kinetika va issiqlik almashinuvi jarayonlarini kompleks hisobga oluvchi sonli modellar ishlab chiqish bo'yicha sezilarli ilmiy yutuqlar qayd etilgan. ANSYS Fluent, OpenFOAM, COMSOL Multiphysics kabi platformalar turbulent yonishning RANS, LES va DNS modellari uchun keng qo'llanmaga aylandi.

Shu bilan birga, oxirgi yillarda yonish jarayonlarini boshqarishda **sun'iy intellekt (SI)** qo'llash bo'yicha ilg'or tadqiqotlar shakllandi. AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya ilmiy markazlarida gaz-havo nisbatini real vaqt rejimida optimallashtiruvchi **neyrontarmoqlar, reinforcement learning, surrogaat modellar**, shuningdek, chiqindi gazlar (NO_x, CO) konsentrasiyasini oldindan bashoratlovchi AI algoritmlarini yaratish bo'yicha yuqori samara ko'rsatildi. SI-CFD integratsiyasi yordamida yoqish kamerasi geometriyasini avtomatlashtirilgan

tarzda optimallashtirish texnologiyalari ham rivojlanmoqda.

Shunga qaramay, mavjud ilmiy ishlanmalarning ko'pchiligi **katta quvvatli sanoat yoqish qurilmalariga** qaratilgan. Maishiy va o'rta quvvatli isitish uskunalari uchun to'liq mos, o'zgaruvchan gaz tarkibi, tashqi muhit sharoitlari va lokal ekspluatatsion omillarni hisobga oluvchi model va boshqaruv tizimlari yetarli emas. Bu ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun dolzarb bo'lib qolmoqda.

Jahon bozorida energiya tejamkor gaz yonish tizimlari bo'yicha asosiy raqobatchilar sifatida **Bosch, Viessmann, Vaillant, Buderus, Navien, Rinnai** kabi yirik kompaniyalar faoliyat yuritadi. Ularning aksariyati kondensatsion qozonlar, gaz yoqish burnerlarida yuqori samaradorlikka ega konstruktiv yechimlar va PID asosidagi boshqaruv tizimlarini qo'llaydi. Biroq ushbu mahsulotlar:

- murakkab CFD-AI integratsiyasiga ega emas,
- gaz tarkibining tez-tez o'zgaradigan hududlar uchun moslashuvchan optimallashtirish algoritmlari bilan jihozlanmagan,
- ko'pincha yuqori narx segmentiga mansub,
- lokal sharoit uchun to'liq moslashtirilmagan.

O'zbekiston bozorida mavjud aksariyat isitish uskunalari importga bog'liq bo'lib, ularning konstruktsiya va boshqaruv tizimlari jahonning eng yangi SI-CFD yondashuvlariga asoslanmagan. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarda esa zamonaviy CFD tahliliga asoslangan yoqish kamerasi loyihasi va SI yordamida real vaqt boshqaruv algoritmlari mavjud emas.

Tadqiqot muammosi jahon ilm-fanda rivojlangan bo'lsa-da, mahalliy sharoitga moslashtirilgan, arzon, energiya tejamkor va ekologik xavfsiz yonish tizimi loyihasini yaratish borasida sezilarli ilmiy-texnik bo'shliq mavjud. Mazkur loyiha aynan shu bo'shliqni to'ldirib, CFD va SI integratsiyasiga asoslangan yangi avlod boshqaruv va optimallashtirish platformasini ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'lib, xalqaro ilmiy tendensiyalarga to'liq mos keladi va raqobatchilar bilan solishtirganda aniq ustunliklarga ega.

4.4. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, qo'yilgan vazifa(lar)ni hal etish va rejalashtirilgan natijalarni olish imkoniyatlari (1500 ta so'zdan oshmasligi lozim):

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati, yangiligi va innovatsion salohiyati yonish jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha mavjud ilmiy maktablar bilan uyg'un holda yangi avlod modellashtirish va boshqaruv yondashuvlarini ishlab chiqishida namoyon bo'ladi. Loyihaning asosiy vazifasi - **CFD (Computational Fluid Dynamics) modellashtirish, sun'iy intellekt algoritmlari va energiya samaradorlik tahlillarini integratsiyalashgan holda qo'llash** orqali, mahalliy sharoitda foydalanilishi mumkin bo'lgan energotejamkor, ekologik xavfsiz va yuqori samarali yonish tizimining **konstruktiv-texnik loyihasini ishlab chiqishdan** iborat.

CFD va AI (Sun'iy intellekt) asosida kompleks integratsiyalashgan yonish modeli yaratiladi.

Hozirgi kunda ko'plab tadqiqotlar CFD modellarini alohida, boshqaruv algoritmlarini esa mustaqil o'rganadi. Mazkur loyihada esa ikki metodologiya birlashtirilib, real vaqt rejimida yonish jarayonini optimallashtirish imkonini beruvchi **gibrid nazorat tizimi** ishlab chiqiladi.

Mahalliy sharoit, gaz tarkibi va ekspluatatsion parametrlar asosida moslashuvchan model taklif etiladi.

O'zbekistonning tabiiy gaz tarkibi o'ziga xos bo'lgani sababli global modellar mahalliy sharoitda

to'liq mos ishlamaydi. Taklif etilayotgan ilmiy yondashuvda gazning mahalliy kimyoviy tarkibi, namlik, bosim o'zgaruvchanligi kabi omillar hisobga olinadi.

NO_x, CO va issiqlik samaradorligini bir vaqtning o'zida optimallashtiruvchi ko'p-maqsadli matematik model ishlab chiqiladi.

Amaldagi ishlanmalarning aksariyati bir parametrغا — samaradorlikka yoki NO_x kamaytirishga yo'naltirilgan. Tadqiqotda esa ko'p faktorli optimallashtirish yordamida kompleks optimallashtirilgan texnologik loyiha yaratiladi.

Eksperimental validatsiya uchun modulli laboratoriya stendi yaratiladi.

Ushbu stend o'zgaruvchan parametrlarni real sharoitga yaqin holatda sinash imkonini beradigan ilk mahalliy ilmiy baza bo'ladi.

4.5. Muammoning ilmiy yechimini ta'minlash bo'yicha taklif etilayotgan usul va ilmiy yondashuvlar (*bunda taklif etilayotgan usul, metodologiya va yondashuvlar mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilishi, loyihaning xususiyatidan kelib chiqqan holda sxemalar bilan asoslanishi, tadqiqotni tajriba (agar rejalashtirilgan bo'lsa) o'tkazish dizayni, tajriba guruhleri to'g'risida ma'lumot keltirilishi, ya'ni "nazorat" va tajriba guruhleri asoslab berilishi va statistik qayta ishlash usullari yoritilishi, tadqiqot o'tkazish uchun usul va materiallar olib boriladigan tajriba namunalari bilan bog'liqligi hisob-kitoblar bilan ko'rsatilishi lozim, 1500 ta so'zdan oshmasligi lozim*):

Taklif etilayotgan ilmiy metodologiya uch asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi:

CFD asosida yonish jarayonining fundamental modellashtirilishi

Turbulent oqimlar, kimyoviy reaksiyalar va radiatsion issiqlik almashinuvi bo'yicha yuqori aniqlikdagi matematik model yaratiladi.

SI algoritmlari yordamida real vaqt boshqaruvi va optimallashtirish

CFD natijalari asosida o'qitilgan SI modellar gaz-havo nisbati, alanganish rejimi va chiqindi gazlar tarkibini boshqaradi.

Eksperimental validatsiya va prototip sinovlari

Modelning to'g'riligini tasdiqlash uchun laboratoriya sinovlari va tajriba qurilmalarida o'lchovlar amalga oshiriladi.

Matematik modelning tuzilishi

Yonish jarayonini modellashtirish uchun quyidagi tenglamalar tizimi qo'llaniladi:

